

**ELEKTRON HUJJAT AYLANISHI TIZIMLARI VA ULARNING
AFZALLIKLARI**

Axmadova Malika Usmon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti

1-kurs talabasi

Ahmadovamalika070@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada electron hujjat aylanishi tizimlarining (EHAT) zamonaviy boshqaruvdagi o'rni , ularning texnik va huquqiy asoslari , shuningdek amaliy afzalliklari o'rganilgan . Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida hujjat aylanishini raqamlashtirish jarayonlari, " Elektron hukumat" tizimi va xalqaro tajriba (Estoniya- X –Road , Rossiya- "Delo", AQSH- "DocuSign") tahlil qilingan. Maqolada electron samaradorligi, xavfsizlik talablari va boshqaruv sifatini oshirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ma'lumotlarni saqlashda "blockchain" texnologiyasi va raqamli imzodan foydalanishning afzalliklari muhokama qilinadi. Yakunda O'zbekiston sharoitida EHATni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar beriladi.*

KALIT SO'ZLAR: *electron hujjat aylanishi , raqamli transformatsiya, electron imzo , axborot xavfsizligi , "Elektron hukumat" , blockchain, hujjat boshqaruvi.*

ABSTRACT: *This article examines the role ,technical and legal foundations, and advantages of Electronic Document Management Systems (EDMS) in modern governance. The study analyzes the process of digitalization of document circulation in Uzbekistan ,the "E-Government" system, and international experiences such as Estoni's X-Road, Russia's "Delo" and the U.S. "DocuSign". The security requirements, and management benefits of EDMS, as well as the role of blockchain and digital signatures in ensuring authenticity and integrity. The*



conclusion offers practical recommendations for further development of EDMS in Uzbekistan.

Keywords: *Electronic document management, digital signature, e-government, data protection, blockchain, digital transformation.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье исследуется роль и преимущества систем электронного документооборота (СЭД) в современном управлении в современном управлении, а также их технические и правовые основы. Рассматривается процесс цифровизации документооборота в Узбекистане, систем “Электронное правительство” и международный опыт (Эстония – X-Road, Россия – “Дело”, США – “DocuSign”). В статье подчеркивается экономическая эффективность, безопасность и преимущества СЭД, а также использование технологии blockchain и электронной подписи. В заключение предложены рекомендации по совершенствованию СЭД в Узбекистане.*

Ключевые слова: *Электронный документооборот, электронная подпись, безопасность данных, электронное правительство, blockchain.*

KIRISH

XXI asrning globallashuv jarayonlari, raqamli iqtisodiyotning jadal raivojlanishi va jahon miqyosidagi texnologik integratsiya jarayonlari davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta'lim va biznes sohalarida chuqur tub o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Raqamli transformatsiya endilikda nafaqat texnik imkoniyat yoki zamonaviy qulaylik, balki davlatlar va tashkilotlarning raqobatdoshligini belgilovchi strategik zaruratga aylanadi. Mazkur jarayonlarning markazida esa hujjatlar bilan ishlash, axborot oqimini boshqarish va ma'lumotlarni qayta ishlashning avtomatlashtirilgan tizimlari, xususan elektron hujjat aylanishi tizimlari (EHAT) turadi. Avvalo savol tug'ilishi mumkin elektron hujjat nima o'zi? 5-modda. Elektron hujjat

Elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan axborot elektron hujjatdir.



Elektron hujjat texnika vositalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan hamda axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda yaratiladi, ishlov beriladi va saqlanadi.

Elektron hujjat elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining mazkur hujjatni idrok etish imkoniyatini inobatga olgan holda yaratilishi kerak.

Hujjatlar boshqaruvi har qanday tashkilot faoliyatining asosiy ustunlaridan biri sanaladi. Chunki hujjat –bu qaror qabul qilish, mas’uliyatni belgilash, boshqaruv jarayonlarini huquqiy asoslash va tashqi hamkorlikni yo’lga qo’yishning muhim vositasidir. An’anaviy qog’oz hujjatlar bilan ishlash jarayoni esa ko’p vaqt, katta moddiy mablag’ , katta xodimlar resursini talab qilishi bilan birga ,inson omili tufayli xatolarga yo’l qo’yilish ehtimoli yuqori bo’ladi. Shu sababli dunyoning yetakchi davlatlari so’nggi 20-25 yil davomida hujjatlarning elektron formatga o’tishi ,ma’lumotlar almashinuvi va boshqaruv jarayonlarini to’liq raqamlashtirishni o’z oldilariga asosiy strategik vazifa sifatida qo’ydilar. Bugungi kunda elektron hujjat aylanishi tizimlari mafaqat hujjatlarning raqamli shaklda yuritilishni , balki boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, tashkilotning ichki tartibini optimallashtirish , rahbarlar uchun tezkor qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish , xodimlar ish samaradorligini oshirish va ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash kabi ko’plab ustunliklarga ega . Elektron hujjat aylanishi tizimlari yordamiga hujjatlarning yaratilishi, kelib tushishi , tasdiqlanishi, ijro uchun topshirilishi va arxivlanishigacha bo’lgan barcha jarayonlar elektron shaklda , shaffof va nazorat qilinadigan tarzda amalga oshiriladi. Bu esa jarayonlarining bir nechta barobar tezlashishiga, xatoliklar sonining qisqarishiga, ijro intizomning oshishiga olib keladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko’rsatadiki, elektron hujjat aylanishi tizimi raqamli boshqaruvning eng asosiy elementi hisoblanadi. Masalan , Estoniyada X-Road platformasi asosida barcha davlat idoralari yagona elektron infratuzilmaga ulangan bo’lib, statistik ma’lumotlarga ko’ra, fuqarolarning 99% ga yaqin davlat xizmatlari to’liq raqamli shaklda ko’rsatiladi. AQSH, Yaponiya, Koreya va Singapur kabi texnologik yetakchi davlatlarga esa korxonalarining 80% dan ortig’i elektron hujjat menejmenti tizimlaridan



foydalanadi. Elektron imzo, bulutli texnologiyalar, blokchain texnologiyasi hujjatlarning ishonchliligini oshirishda samarali qo'llanilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda hujjat aylanishini raqamlashtirish bo'yicha sezilarli islohotlar amalga oshirildi. "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi, "Raqamli O'zbekiston -2030" strategiyasining tasdiqlanishi, davlat idoralarida "E-Hujjat", "Idora.uz" kabi elektron hujjat aylanishi tizimlarining joriy qilinishi mazkur sohada tub burilish yasaladi. Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi elektron davlat xizmatlarning ko'payishi, korxonalar va tashkilotlarda axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi elektron hujjat aylanishi tizimlarining samaradorligini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, 2020-2022 yillarda pandemiya sharoitida ko'plab tashkilotlarning masofaviy shaklda faoliyat yuritishi elektron hujjat aylanishi tizimlarining zarurligini va ularning afzalliklarini yanada yaqqol ko'rsatdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, elektron hujjat aylanishi tizimi oddiy texnik vosita emas, balki kompleks boshqaruv mexanizmi bo'lib, u o'z ichida axborot texnologiyalari, huquqiy me'yorlar, tashkiliy jarayonlar, kiberxavfsizlik, biznes jarayonlarni optimallashtirish hamda inson resurslarini boshqarishni qamrab oladi. Demak, bunday tizimlarning joriy etilishi har bir tashkilot uchun boshqaruv madaniyati, strategic rivojlanish, zamonaviy texnologik savodxonlikning oshishi, iqtisodiy samaradorlik oshishi, istisodiy samaradorlik va shaffoflikning ta'minlanishi kabi keng qamrovli ijobiy natijalarga olib keladi.

Shu boisdan, mazkur ilmiy maqolada elektron hujjat aylanishi tizimlarining mohiyati, texnik va huquqiy asoslari, xalqaro amaliyotdagi tajribalar, ularning ustunliklari, muammolar hamda O'zbekiston sharoitida yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar batafsil yoritiladi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda davlat boshqaruvi va xususiy sektorning samaradorligi bevosita hujjat aylanish tizimlarining qay darajada raqamlashtirilgani va avtomatlashtirilganiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida elektron hujjat aylanishi tizimlari.



O'zbekiston Respublikasida elektron hujjat aylanishi tizimlari joriy etilishi 2010-yillardan boshlab "Elektron hukumat" konsepsiyasi doirasida boshlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini bajarish, shuningdek elektron hukumat markaziy ma'lumotlar bazasi va axborot tizimlari komplekslari bilan integratsiyalash O'zbekiston Respublikasi yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish sifatini yanada oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori .

1. Butunjahon Internet axboroti tarmog'ida O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining (keyingi o'rinlarda Yagona portal deb ataladi) yangi versuyasi ishga tushirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal to'g'risidagi nizom tasdiqlansin.

Ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirlari

Elektron hujjat aylanishi tizimlari nafaqat ish jarayonlarini optimallashtiradi, balki jamiyat va iqtisodiyot uchun sezilarli ijobiy natijalar yaratadi. Ijtimoiy jihatdan, bu tizimlar fuqarolarga xizmat ko'rsatishni tezlashtiradi, ma'muriy jarayonlarni shaffoflashtiradi va korrupsiyani kamaytiradi. Hujjatlarning real vaqt rejimida kuzatilishi va elektron tarixchasi ularni nazorat qilish imkonini beradi, bu esa davlat va tashkilotlar faoliyatiga nisbatan jamoatchilik ishonchini oshiradi. Shu bilan birga, tizimlar masofadan ishlash va onlayn xizmatlar imkoniyatini kengaytiradi, fuqarolar uchun qulaylik yaratadi va ish jarayonlarida kechikishlarni kamaytiradi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, elektron hujjat tizimlari xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Umuman olganda, elektron hujjat aylanishi tizimlarini rivojlantirish va keng joriy etish ijtimoiy barqarorlikni oshirish, fuqarolarga qulaylik yaratish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu tizimlar kelajakda



jamiyatni yanada shaffof, samarali va raqamlashtirilgan boshqaruvga olib chiqishning poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Statistika

O'zbekiston misolida

- 2023-yilda davlat tashkilotlarining 85% EHATdan foydalangan.
- Yiliga 50 mln qog'oz hujjat tejalmogda.
- Ish unumdorligi 30% oshgan.

Xalqaro tajriba

Xalqaro amaliyotda Estoniya eng ilg'or tajribalardan biri hisoblanadi. Bu davlatda X-Road tizimi orqali barcha davlat organlari yagona ma'lumotlar almashuv platformasiga ulangan. Natijada hujjat aylanishi to'liq elektronlashtirilgan, fuqarolarga 99% davlat xizmatlari onlayn tarzda taqdim etilmoqda.

AQSH esa DocuSign va Adobe Sign platformalari biznes va davlat sektorida keng qo'llaniladi. Ular elektron imzo, xavfsizlik va hujjat izchiligi (audit trail) funksiyalarini birlashtiradi.

Singapurda "Smart Nation" dasturi doirasida har bir elektron hujjat blokchain asosida shifrlanadi, bu esa hujjatni soxtalashtirishni deyarli imkonsiz qilinadi.

Afzalliklari

EHATning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Vaqt tejaladi- hujjatlar soniyalar ichida yaratiladi, yubotiladi va tasdiqlanadi.
- Iqtisodiy samaradorlik- qog'oz, printer, pochta xarajatlari 70% gacha kamayadi.
- Xavfsizlik-kriptografik himoya orqali ma'lumotlarning o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi.
- Masafaviy ish- pandemiya davrida bunday tizimlar ish jarayonining uzluksizligini ta'minladi.
- Shaffoflik- hujjatlar aylanishi izchil nazorat qilinadi, bu korrupsion risklarni kamaytiradi.



- Audit va nazorat imkoniyati- tizim avtomatik tarzda kim, qachon va qaysi hujjatni o'zgartirilganini qayd etadi.

1. Elektron hujjat aylanishi muammolari va unga takliflar

Elektron hujjat aylanishi tizimi (EHAT)ni joriy etish jarayonida bir qator tizimli muammolar kuzatiladi. Ushbu muammolar kuzatiladi. Ushbu muammolar davlat tashkilotlari, korxonalar va ta'lim muassasalarida ham qisman o'xshashdir. Quyida asosiy muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar keltiriladi.

Muammo

- Ko'plab xodimlar elektron tizimlarda ishlash bo'yicha yetarlicha tajribasiga ega emas.
- Raqamli hujjatlarni yuritish, elektron raqamli imzodan foydalanish, hujjatlarni izlash va tasniflash ko'nikmalari yetishmaydi.

Takliflar

- Doimiy onlayn va malaka oshirish kurslari tashkil etish.
- Har bir tashkilotda "Raqamli coordinator" yoki mas'ul mutaxassis joriy etish.
- Xodimlar uchun soddalashtirilgan qo'llanmalar, video darsliklar, bosqichma-bosqich instruktsiyalar ishlab chiqish.
- Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar orqali tez yordam beruvchi texnik guruhlar tashkil qilish.

2. Texnik infratuzilmaning yetarli emasligi

Muammo

- Ba'zi tashkilotlarda kompyuterlar eskirgan yoki yetarli emas.
- Internet tezligi past bo'lgani sababli tizimda ishlash vaqt talabi oshadi.
- Severlar , skanerlar va boshqa texnik vositalarning yetishmasligi hujjatlarni o'z vaqtida qayta ishlashga to'sqinlik qiladi.

Takliflar

- Tashkilotlarda bosqichma bosqich modernizatsiya dasturini joriy qilish.
- Mahalliy byudjet doirasida kompyuterlar va serverlarni yangilash bo'yicha aniq reja ishlab chiqish.



- Ma'lumotlarni saqlash uchun bulutli infratuzilmaga o'tish, bu xarajatlarni ham kamaytiradi.
- Tizimlar ishlamay qolishining oldini olish uchun zahira serverlar joriy etish .

3.Axborot xavfsizligi siyosatining sustligi

Muammo

- Parollarni bir xil ishlatish, ulashish, xavfsizlik qoidalariga amal qilmaslik keng tarqalgan.
- Tashkilotlarda doimiy audit va monitoring mexanizmlarining yo'qligi.
- Kompyuterlarda litsenziyasiz dasturlardan foydalanish xavf tug'diradi.
- Zararli dasturlar (virus, fishing , social engineering) bo'yicha xodimlar xabardor emas.

Takliflar

- Har bir tashkilotda Axborot xavfsizligi siyosati (IPS) ni ishlab chiqish va unga amal qilishni majburiy qilish.
- Xodimlar uchun yiliga kamida 1-2 marta IT xavfsizlik bo'yicha treninglar o'tkazish.
- Serverlar va kompyuterlarda litsenziyadan antiviruslardan foydalanish.
- Hujjatlarga ruxsat darajasini aniqlovchi role based access control (RBAC) joriy qilish.

XULOSA

Elektron hujjat aylanishi tizimlarining shakllanishi va rivojlanishi O'zbekiston uchun zamonaviy boshqaruvning ajralmas qismiga aylandi. Bu tizimlar davlat organlari, korxonalar va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tez, qulay va shaffof qilish orqali raqamli transformatsiyaning asosiy drayveriga aylandi. An'anaviy qog'oz hujjatlarning sekinligi, xatolarga moyilligi va katta xarajat talab qilishi fonida elektron tizimlar samaradorlik, aniqlik va resurslarni tejash imkoniyatlarini taqdim etmoqda.



Ularning joriy etilishi hujjatlarni real vaqt rejimida kuzatish, ularning yo‘qolish yoki soxtalashtirilishining oldini olish, jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqaruvdagi inson omilini kamaytirish orqali tizim sifatini yanada oshirdi. Mamlakatda yaratilayotgan huquqiy baza, elektron imzo, shifrlash va autentifikatsiya kabi texnologiyalar esa elektron hujjatlarning xavfsizligini mustahkamlab, xalqaro standartlarga mos boshqaruvni shakllantirmoqda.

Shu bilan birga, texnik infratuzilmaning yetishmasligi, raqamli savodxonlikning turlicha darajasi, xavfsizlik protokollarining hamma joyda bir xil ishlamasligi kabi tashkiliy va texnik muammolar mavjud. Ammo davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar, modernizatsiya va xalqaro tajribalarni joriy etish orqali bu muammolar izchil bartaraf etilmoqda.

Umuman olganda, elektron hujjat aylanishi tizimlari nafaqat boshqaruv jarayonlarini soddalashtirdi, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirdi, ijtimoiy ochiqlik va ishonchni kuchaytirdi. Bu tizimlar O‘zbekistonning raqamli rivojlanish strategiyasida muhim poydevor bo‘lib, kelajakda yanada kengayib, mamlakat boshqaruv madaniyatini yangi bosqichga olib chiqishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2004
2. O‘zbekiston Respublikasi “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2015.
3. O‘zbekiston Respublikasining qonuni elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida – Dang’ara tuman hokimligi .
4. O‘zbekiston Respublikasi “ Elektron raqamli imzo” to‘g‘risidagi qonun. – Toshkent 2025.
5. Estonia Information System Authority (RIA). “X-Road Data Exchange Layer Documentation”. – Tallinn, 2020.
6. DocuSign Incorporatio n. “Digital Signatures and Secure Document Management”. – USA, 2021.



7. GOST R 53898–2010. Elektron hujjat aylanishi. Umumiy qoidalar. – Moskva: Standartinform, 2010.
8. Karimov I.M .Turgunov N.A. Axborot xavfsizligi asoslari. – Toshkent: “Muhandis” nashriyoti, 2016.